

“O’TKAN KUNLAR” ROMANI TAHLILI

Surxondaryo viloyati, Shurchi tumani.

46- sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

Shukurova Manzura Abiraxmatovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning O’tkan kunlar romanidagi obrazlar tahlili aks etgan bo’lib, romandagi ham har bir qahramon undagi harakterni aks ettirishda qo’llanilgan so‘zlar betakrorligi va badiiy ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Milliylik, o‘zbek romanchiligi, o‘ziga xoslik, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, O‘zbek oyim.

АНАЛИЗ РОМАНА «МЫШЛЕННЫЕ ДНИ».

Сурхандарьинская область, Шурчинский район.

Общая средняя школа № 46

Учитель родного языка и литературы

Шукuroва Манзура Абирахматовна.

Аннотация: В данной статье представлен анализ персонажей романа Абдуллы Кадири «Откан Кунлар», а также приведены сведения об уникальности и художественном эффекте слов, используемых каждым персонажем романа.

Ключевые слова: Национальность, узбекский писатель, своеобразие, Отабек, Кумуш, Зайнаб, Юсуфбек Хаджи, Узбекский Ойим.

Yaxshi kitob o‘z sir-asrorini bir o‘qishda fosh qilmaydi. Uni takror o‘qiganing sayin tushunib borasan. Siz kitob o‘qir ekansiz, beixtiyor undagi

voqealarni, xayolan o'sha manzilni tasavvur qilasiz, qahramonni ko'z oldingizda gavdalantirasiz. Bu – tasavvur kengayishiga, fikrlashga o'rgatadi. Xilma-xil fe'l atvorlar, turli taqdirlar sizni o'z domiga tortib, o'yga to'ldiradi. Mana shunday inson qalbiga yorug'lik nurini sochuvchi asarlardan biri Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari hisoblanadi. Bu romanni har bir kitobxon o'qir ekan Maksim Gorkiy ta'biri bilan aytganda: "O'zimdag'i barcha yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman" degan xulisaga keladi. "O'tkan kunlar" Abdulla Qodiriyning bosh asaridir. Yozuvchi asar mavzusini bejizga o'tkan kunlardan olmagan. Chunki buguni mustahkam, ertasi porloq bo'lishini istagan har bir xalq o'tmishini yaxshi bilishi kerak. Bu xususda Abdulla Qodiriy romanning so'zboshisida shunday deydi: "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tari-ximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonalari" dan belguladim". Abdulla Qodiriy g'oyat fozil va olim odam bo'lgan. U adabiyot tarixini ham, Sharq va G'arb adabiyotini ham, o'zbek tilining sir-asrorlarini ham yaxshi bilgan. "O'tkan kunlar" ning jozibador tili bu fikrning isbotidir. O'tkan kunlar, ba'zi manbalarda "O'tgan kunlar" – o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub o'zbek adabiyotidagi birinchi roman. 1969-yil "O'zbekfilm" kinostudiyasida ushbu roman asosida "O'tgan kunlar" nomli film suratga olingan. Adib romanni yozishda arab yozuvchisi Jurji Zaydon asarlaridan ilhomlangan deya takidlangan. Roman 1920-yillar boshida yozilgan bo'lib, 1922-yil ilk bor "Inqilob" jurnalida chop etilgan va 1926-yilda alohida kitob holida chiqarilgan. "O'tkan kunlar" romanining qachon yozib tugatilgani, matbuotda e'lon qilinishi haqidagi ma'lumotlarda biroz chalkashliklar bor. Ammo adib ijodi yuzasidan chuqurroq ish olib borgan tadqiqotchilar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Abdulla Qodiriy 1917–1918-yillardan boshlab "O'tkan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanining ilk boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshladi. O'sha yillardayoq asar qo'lma-qo'l bo'lib, o'quvchilar

asarning navbatdagi boblarni chiqishini intiq bo‘lib kutishgan. Barchamizga ma’lumki, u davrlarda zamon ancha notinch edi. Shu sababli jurnal muntazam chop etilmagan. Ma’lumotlarni o‘rganib chiqsak, faqatgina 1922-yilning o‘zida “Inqilob” jurnali ma’muriyati bir necha marta almashganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat esa roman taqdiriga ham anchayin salbiy ta’sir qildi, hatto asardagi so‘zlarda original holatdan uzoqlashishlarni ko‘rishimiz mumkin. Romanning bиринчи bo‘limi ilk bor 1925-yilda nashr qilingan bo‘lsa, 1926-yilda ayrim xatoliklar tuzatilib qayta nashrdan chiqdi. Ko‘p hollarda shunday bo‘ladiki, bиринчи o‘qiganingizda asardan juda ko‘p ma’lumot olasiz-u, xursand bo‘lasiz. Vaqt o’tgach, bu asarda ko‘tarilgan mavzular dolzarbligi, yangi-yangi bahslar va turli davrlarda turlicha xulosalar paydo bo‘ladi. "O’tkan kunlar"ning badiiy qiymati shundaki, bu roman har gal o‘qilganida yangi ma’no nozikliklari ko‘riladi. O‘z davrida asar keng omma tomonidan o‘ta “tashnalik” bilan talashib-tortishib o‘qilganining sababi ham shunda. Otabek 24 yoshda, Toshkentlik Yusufbek hoji va O‘zbek oyimning ko‘z nuri, yagona farzandi. Marg‘ilon go‘zali Kumush esa 17-18 yoshlarda Mirzakarim qutidor va Oftob oyimlarning yolg‘iz farzandi. Savdogarlik bilan shug‘ullanuvchi Otabek Marg‘ilonda Mirzakarim qutidorning tashqi hovlisidan o‘tgan ariqdan tahorat uchun suv olayotib, tasodifan Kumushga ko‘zi tushadi. Kumush ham Otabekni ko‘radi. Nigohlar bir-biriga to‘qnashgan chog‘da ikkala qalbda ham ishq otashi alanganadi. Asardagi ushbu voqeа tasviri o‘qilar ekan, yozuvchi o‘zbek ayolining ibo-hayosini mahorat bilan aks ettirganini ko‘rishimiz mumkin: "Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha qutidorning tashqarisig‘a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig‘a kelib to‘xtag‘an chingilin yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko‘z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho‘chig‘andek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomong‘a burdi. Bu burilishdan uning orqa-o‘ngini tutib yotqan qirq kokillari to‘lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq-

bo‘yida qotib turg‘an yigitka yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi..."

Otabek ham Kumush ham juda parishon bo‘lib yuradi, ular hali bir-birini tanimas edi. Otabekning yonida doimo u bilan birga yurgan, uning “ma’naviy otasi” Hasanali bu parishonlikning tagiga etadi va Otabek nomidan Ziyo shohichi bilan birga qutidornikiga sovchilikka otlanadi. “Kiroyi kuyoving shunday bo‘lsa” deb havaslanib yurgan Mirzakarim qutidor qizini Toshkentga yubormaslik sharti bilan rozilik beradi. Kuyovning kim ekanidan Kumush hali xabarsiz, ko‘nglidagi xufiyona ishqidan azob chekardi. To‘y bo‘ladi va Kumush o‘sha kuni kuyovning o‘zi ariq bo‘yida ko‘rib qolgan yigit, qalbining sohibi ekanini biladi. Yozuvchi sujet oqimi bilan o‘sha davrdagi o‘ta murakkab tarixiy davrni ham qadam-baqadam hikoya qilib boradi. Mahalliy hokimliklar bir-biri bilan nizoda, to‘qnashuvlarda qipchoq va qora choponlar bir-birini ayovsiz qirayotgan bir vaziyat edi. Yagona o‘g‘li Otabekning marg‘ilonlik qiz Kumushga uylanganini va uning ustiga kelinining ota-onasi qizini Toshkentga yubormasligidan xabar topgan O‘zbek oyimning fig‘oni falakka chiqadi va o‘g‘lini ikkinchi marta uylantirish uchun Toshkentdan kelin qidirib, Otabekning rizoligisiz qiz tarafga va’da ham beradi. Ota-onas orzusiga qarshi chiqolmagan Otabek Olim ponsadboshining qizi Zaynabga uylanishga majbur bo‘ladi. Otabek Toshkentda yurgan kezlari Kumushga oldindan ko‘z olaytirib yurgan Homid xotinboz hiyla uyushtirib, Otabekning nomidan Kumushga soxta taloq xati yozadi. Bundan bexabar Marg‘ilonga qaynotasining uyiga kelgan Otabekni Mirzakarim qutidor haydab yuboradi. Holatga tushunmasdan Otabek ham qaynotasidan qattiq ranjiydi. Oradan ancha oylar o‘tadi, Otabek Marg‘ilonga bir necha marta kelib usta Alimnikida tunab qolaveradi. Shunday kunlardan birida Otabek bexosdan Homid va bir guruh razil kimsalar tomonidan o‘ziga uyushtirilgan hiyladan xabar topadi. Bundan tashqari, Homidning yana bir qabih niyatini ham oldindan bilib qoladi va bir o‘zi uch kishiga qarshi kurashib, Homidning Kumushni olib ochish rejasini yo‘qqa chiqaradi. Bo‘lib o‘tganlardan hayron qolgan Mizakarim qutidor va oilasi Otabekning oldiga, Toshkentga, yo‘l olishadi. Kumush va Zaynabning

kundoshlik hayoti boshlanadi. Zaynabning qizg‘anishlari, Kumushning ilmoqli gaplari, tortishib qolgan kundoshlarga Yusufbek hojidan chiroyli murosa shakllari fonida kunlar o‘tadi. Kumush farzand kutayotgan edi va oy-kuni yetib ko‘zi yorigan kuni kundoshi Zaynab unga opasi Xushro‘y bibining undovi bilan atalaga zahar qo‘shib beradi. Kumush bu yorug‘ olamni tark etadi. Sevgisidan qolgan yagona Yodgori bilan Otabek Zaynabni taloq qilib, bosh olib Marg‘ilonga ketadi. Bo‘lib o‘tganlardan ta’sirlangan Zaynab aqlidan ayrıladı. Asar so‘nggida esa vatanni himoya qilishga otlangan Otabekning janglardan birida vafot etgani aytiladi. Romanda o‘quvchini hayajonga soluvchi holat, albatta, Otabek va Kumush sevgisi. Bir ko‘rishda bir-biriga xufiyona oshiq bo‘lishi ortidan o‘quvchida ham ajib hayajonshakllana boradi. Tanimagan yigitga uzatilayotgan Kumush bilan birga iztirob cheksa, xayolidagi u go‘zalning nigohlaridan o‘t kabi yongan Otabek bilan birga yonadi. Va nihoyat to‘y oqshomi Otabek va Kumush ko‘rishgan onda kuyovning Otabek ekanidan bexabar Kumushning ma’yus ko‘zları birdan porlab “Siz o‘shami?” deb so‘rashi o‘quvchini ham kuchli hislar ummonida suzishga undaydi. Shu o‘rinda asardagi ushbu mashhur dialogni o‘zbekona muhabbatning ramziga aylangan jumlalar desam to‘g‘ri bo‘ladi. Adib Otabek obrazida o‘zining yangicha fikrlarini ilgari surgan. Otabek savdogar va o‘zi borgan o‘lkalar va o‘z yurtidagi iqtisodiy holatlar yuzasidan sog‘lom qiyosiy fikrlar bildiradi. Bundan tashqari, Ziyo shohichining uyida bo‘lib o‘tgan suhbatda o‘zining uylanish masalasi fonida o‘sha davr oilalarida xotin-qizlarga nisbatan mavjud bo‘lgan nosog‘lom muhit haqida tanqidiy qarashlarini aytib o‘tadi. Bundan tashqari, asarda unga shunday ta’rif beriladi. “Yusufbek hojining qiziq bir tabiatı bor: xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa bo‘lsin, uzoq so‘zlashib o‘tirmaydur... Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uvchini o‘z og‘zig‘a tikiltirib o‘turg‘andan so‘ng, agar ma’qul tushsa “xo‘p” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa “xo‘sh” deydir, noma’qul bo‘lsa “durust emas” deydir va juda ham o‘zig‘a noma’qul bo‘lsa bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir”. Ushbu ta’rifdan ham Yusufbek hojining naqadar

mulohazali, o‘ziga xos ma’naviy salobatga ega obraz desam o‘rinli bo‘ladi. Davlatchilik boshqaruvi va davr ijtimoiy muhitiga munosabatida ham Yusufbek hoji obrazining mukammalligiga guvoh bo‘lamiz. Adib davlat boshqaruvi haqidagi tanqidlari va noroziliklarini hoji obrazi misolida yetkizib bergen. “O‘tkan kunlar” romanida xalq, millat turmushi manzaralarini, milliy urfodatlarni, millat vakillariga xos xususiyatlarni jonli, hayotiy ifodalash, asarning ruhida, ichki mazmunida so‘zlash tarzida milliylikning namoyon bo‘lishi milliy ruhning yanada ta‘sirchan ifodalanishiga xizmat qilgan. Romandan olingan ushbu parchada esa o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan milliylik aks etgan: " Oftob oyimning shu yo‘sun chaqirishi uchto‘rt qaytalab bo‘lsa-da, Kumush eshitmaganga solinib arzimagan narsalar bilan shug‘ullang‘an bo‘lib chiqqa bermadi. Otabekning yuzidagi o‘ychanliqqa razm qo‘yg‘an sayin Oftob oyimning haligi shubhasi ulg‘aya bordi, kuyavning ko‘zini shamg‘alat qilib qizining oldig‘a kirdi va shivirlab Kumushni urisha boshladi: «Esingni yedingmi qizim, ering sani deb Toshkand degan shahardan kelsayu, san kim keldi deb oldig‘a chiqmasang. Tur, chiqib so‘rash, arazlab ketib qolsa nima qilasan?» Oftob oyimning bu keyingi so‘zi chindan ham Kumushni o‘ylatib qo‘ydi: «...Ketib qolsa nima qilaman?» degan jumlanı ko‘nglidan kechirdi-da, onasidan ilgariroq go‘yoki, ayvon toqchasidanbir narsa oladirg‘andek bo‘lib, o‘ziga termulib turg‘an Otabekka yer ostidan sekingina bir kulib boqdi va toqchadag‘i keraksiz bo‘lg‘an bir piyolani olib, yana uyga kirib ketdi. O‘zbek oyimning sihirchi-joduchi deb qarg‘ashi ham hikmatsiz bir gap emas. Kumushbibining bu kulib qarashi Otabekka ajib bir inqilob yasag‘an edi. Undagi oniy bu o‘zgarish juda qiziq va sira ishonmasliq edi. Ul bu yer tegidan bir kulib boqish ta’siri bilan ustidagi tog‘dek bosib yotqan «orzu»ni ag‘darib solg‘an va qushdek yengil tortqan edi. Uning oniy bu o‘zgarishi shundan iborat edi: «Ularning orzu va rizoliqlari, bu rizoliq sharofati bilan topiladirg‘an savob, yurtning yuqori-quyi gaplari — barchasi ham Kumushning yolg‘iz shu birgina kulib qarashi oldidan o‘tabersin!» Shuningdek, romanning ma’no-mundarija doirasi keng. Unda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolar badiiy mahorat bilan qalamga olingan. Biroq ular orasida eng

muhimi, yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. Buning isboti sifatida Yusufbek hojining ushbu jumlalarni keltirishimiz mumkin. Bularning bari davr jaholatidan dalolat bermoqda. Yozuvchining asosiy maqsadlaridan biri ham jaholat va uning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berish edi.

ADABIYOTLAR:

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2014.
2. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. –T.: Adabiyot va san’at, 1986
3. Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriyning psixologik tasvirlash mahorati. –T.: Fan, 1977.
4. Maxmidjonov, S. (2023). O’ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
5. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O’ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.
6. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O‘G‘Li (2023). O’ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 520-524.
7. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. Modern Science and Research, 2(6), 1231-1235.
8. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. Интернаука, (15-3), 75-76.
9. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

11. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM" ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKHLARI. Nazariy Va Amaliy Fan, (5), 590-592.
12. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyoziy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr